“O’zbekiston mehr-shafqat va salomatlik” jamoat fondiga beg’araz yordam

Bugungi kunda butun dunyo hamjamiyati tomonidan koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish borasida muhim choralar ko’rilmoqda.

Dunyo aholisi juda kichik bir zarradek kasallik qo’zg’atuvchisi ortidan xavotirli hayot kechirishmoqda. Kimdir o’z kasbi bilan shug’ullana olmayotgan bo’lsa, yana kimdir yaqinlaridan yiroqda qolib ketmoqda. Boshqalar esa o’z hayotlarini xavf garovga qo’yib, insonlar salomatligi uchun tunu-kun kurashmoqdalar. Barcha urinishlarning ortida, faqatgina sabr va qanoat bilan sanitariya-gigiena qoidalariga so’zsiz rioya qilgan holda, ushbu virus tufayli kelib chiqqan pandemiya jarayonini yengib o’tish singari mas’uliyatli vazifa turibdi.

Ayni paytda mamlakatimizdagi barcha soha vakillari mazkur pandemiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etmoqda. Ayniqsa, mana shu sinovli kunlarda xalqimizga xos mehr-muruvvat, saxovat kabi xislatlar yanada ko’proq namoyon bo’lmoqda.

El boshiga ish tushganda chetdan kuzatib turish bizga aslo yarashmaydi. Har qanday muammoni faqatgina birlashish yo’li bilan, hamjihatlikda, yakdil harakatlar bilan hal etishimiz mumkin. O’zR FA Zoologiya instituti xodimlari ham mana maqsad yo’lida o’z ish haqlarining bir qismini “O’zbekiston mehr-shafqat va salomatlik” jamoat fondiga beg’araz yordam tariqasida o’tkazib berdilar.

Sizdan ushbu sinovli kunlarda faol bo’lishingizni so’rab qolamiz va “O’zbekiston mehr-shafqat va salomatlik” jamoat fondini moddiy qo’llab-quvvatlashga chorlaymiz!